

Elektr energiyasi bozorida raqobat muhitini rivojlantirish — “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining muhim vazifalaridan biri

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida elektr energiyasi bozori ishtirokchilari sonini 2030-yilga qadar 140 taga yetkazish hamda sohada raqobat muhitini yanada takomillashtirish nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–21-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida tizimli islohotlarni amalga oshirish uchun muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Strategiyaning 52-maqsadi energetika sohasini yanada rivojlantirish, elektr energiyasi bozorida zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish hamda raqobat muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Mazkur maqsad doirasida elektr energiyasi bozori ishtirokchilari sonini 2030-yilga qadar 140 taga yetkazish vazifasi belgilangan bo‘lib, bu sohada raqobat muhitini kuchaytirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda energetika sohasida bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish bo‘yiça muhim ishlar olib borilmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda qator yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirildi hamda xususiy investorlar ishtirokida yangi generatsiya quvvatlarini yaratish bo‘yiça loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa elektr energiyasi bozorida ishtirok etayotgan subyektlar sonining ko‘payishiga, sohaga zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv tajribasining kirib kelishiga xizmat qilmoqda.

Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tomonidan elektr energiyasi bozori ishtirokchilari uchun teng, shaffof va adolatli shart-sharoitlarni ta‘minlash, litsenziyalash tizimini takomillashtirish hamda tartibga solish mexanizmlarini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish bo‘yiça izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Strategiyada belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar:

Yil	Ishtirokchilar soni
2026	85 ta
2027	105 ta
2028	120 ta
2029	130 ta
2030	140 ta

Mazkur ko'rsatkichlarga erishish natijasida elektr energiyasi bozorida raqobat muhiti yanada rivojlanadi, xususiy sektorning ishtiroki kengayadi, investitsiyalar hajmi ortadi va sohada zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengayadi.

Bu esa elektr energiyasi ta'minotining ishonchliligi va samaradorligini oshirish, iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, elektr energiyasi bozorining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini energiya resurslari bilan kafolatli ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi farovonligini yuksaltirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Energetika bozorini rivojlantirish va tartibga solish agentligi tomonidan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar izchil davom ettirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda zamonaviy, shaffof, raqobatbardosh va barqaror elektr energiyasi bozorini shakllantirishga erishiladi.